



ALISHER NAVOIYNING "XAMSA" ASARI TARKIBIDAGI "SADDI ISKANDARIY"- PANDNOMA ASAR

Abdimo'minova Dildora

TerDU talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada turkiy til asoschisi buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning "Xamsa" asari tarkibidagi "Saddi Iskandariy" dostoni yoritilgan bo'lib, unda keltirilgan hikoyatlar, doston tarkibidagi voqealar Iskandarning adolatligi va oliyjanobligining dalili sifatida ko'rsatilgan. Asardagi dostonlarning o'xshash jihatlari ham maqolada berilgan.*

Kalit so'zlar: *mulk, pandnoma, fazilat, Iskandar Makedonskiy, Iskandar Zulqarnayn, obraz, adolat, rahmdil, Doro, hikoyat, maqolat, Chingizxon, Xorazmshoh, ikki do'st, Bahrom go'r.*

So'z mulkining sultoni, mutafakkir Alisher Navoiyning hayot yo'li, ijodi barcha turkiy xalq vakillari uchun birdek tanishdir. Bobokalonimizning "Xamsa" asarini eshitmagan, undagi dostonlarni o'qimagan, hech bo'lmasa ta'rifini eshitmagan kimsa bo'lmasa kerak. Ushbu shohnoma asar o'z ichiga

- "Hayrat ul abror"
- "Farhod va Shirin"
- "Layli va Majnun"
- "Sabbai sayyor"
- "Saddi Iskandariy"

kabi dostonlarni qamrab olgan bo'lib, ular insonlar uchun ibratli bo'lgan pandnomalar, sevgi sarguzashti va adolatli podshoh bilan bog'liq voqealarni o'zida mujassam etgan. "Saddi Iskandariy" dostoni haqida so'z borar ekan, asarda "Farhod va Shirin" hamda "Layli va Majnun" dostonlaridagi kabi muhabbat muammolarini emas balki adl podshoh fazilatlarini ko'ramiz. Doston 89 bob 7215 baytdan iborat bo'lib, muqaddimaning o'zi 14 bobni, asosiy qism 15-83, xotima esa so'nggi 6 bobni tashkil etadi. Asarning kirish qismi

- Hamd
- Munojot
- Na't
- Me'roj tuni
- Xamsa takmili
- Nizomiy va Dehlaviy madhi
- Jomiy madhi
- Inoyat quyoshi vasfi va hidoyat buluti ta'rifida
- Husayn Boyqaro ta'rifida
- Badiuzzamon Bahodir madhi



- Peshdodiylar
- Kayoniylar
- Ashkoniylar

• Sosoniylar kabi boblardan iborat. Dostonning hamd bobida olamning yaratilish tarixi, 9 qavat osmon, sayyoralar, yulduzlar turkumining har biriga alohida ta'rif beradi. Yaratgan buyukligiga hamd-u sano aytadi. Bularning barchasidan eng oliy zot - Odanning yaratilishi ekanligini aytadi. Na't qismida esa ilohiy kitoblar nomi keltirilgan. Sônggi ilohiy kitob Qur'oni karim bilan esa Allohning dini kamol topganligi hamda Payg'ambarlik nuri haqida gapiriladi. Iskandar mukammal podshoh sanalib, yoshligida Faylaqus uni boqib olgan bo'ladi. Doro, Mallu, Hind rojasi, Chin xoqonlari bilan qilgan munosabatlari orqali uning naqadar donishmand ekanligini bilish qiyin emasdir. Doston tarkibida Mahmud G'aznaviy, Majnun, G'ofil yigit, Ardasher, Bulbul hikoyati kabi axloqiy hikoyalarni uchratishimiz mumkin. Doston yakunida berilgan Iskandarning onasiga aytgan hikmatli gapi qalblarni junbushga keltirishi hech gap emas. U onasiga "men vafot etganimdan so'ng odamlarga osh tarqating va biron kishisini yerga qo'ymagan insongina ushbu oshni iste'mol qilsin deb buyuring, agar kimdir bu oshni yesa meni deb bemalol yig'lang, aksincha bo'lsa men uchun aza tutib o'tirmang" degan mazmundagi xatni yuboradi. Bu voqeadan dunyoda o'lim, yaqinlarini yerga qo'yish harbir kimsaning boshida bor, shunday ekan ularning ortidan yig'lab emas aksincha haqqiga duolar qilib, ehsonlar chiqaribgina yo'llarini yorita olishimiz aglashiladi. Xamsani o'qigan sayin dostonlar orasidagi o'xshashliklarni payqash mumkin. Masalan "Hayrat ul abror"dagi maqolatlarda sultonlar uchun nasihat berilganligi, yoki Iskandar vafoti oldida "bir qo'limni tobutdan chiqarib qo'yinglar, odamlar manaman degan sulton, qanchadan qancha joylarni bosib, mol mulkka ega bo'lgan sulton Iskandar ham Allohning oldiga bo'm bo'sh qo'l bilan ketayotganini ko'rsin" deya qilgan vasiyatini ham uchratishimiz mumkin. Ushbu usul bilan Navoiy o'z asarlari orasidagi bog'liqlikni ushlashni maqsad qilgan bo'sa ajab emasdir. Doston tarkibida keltirilgan hikoyatlar ham yosh avlod uchun juda kata tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Endi ularni tahlil qiladigan bo'lsak, Chingizxon va Xorazmshoh orasida sodir bo'lgan urushdagi bir voqeadan hikoyat keltiriladi va aynan o'sha hikoyat ham "Hayrat ul abror"dagi hikoyatlardan birini esga soladi. Yani unga ko'ra Chingizxon g'alaba qozongach, aholini bitta ham qolmay qatl etishni buyuradi. Ana o'sha aholi orasida ikki do'st bo'lib, ular bir-birining ustiga o'zlarini tashlab, "oldin meni qatl eting, do'stimning halok bo'lishini ko'rishga toqatim yo'q" deb yalinadilar. Bu paytda Chingizxon uxlab yotgan bo'ladi.

Tushida bu ikki do'stning ishi ayon bo'lib, birov unga: "Sen Xorazmshoh bilan dushman bo'lgansan, oddiy xalqning gunohi nima?!" deya tanbeh beradi. Chingizxon uyg'ongach, omonlik e'lon qiladi. Ikki do'st sharofati bilan qatliom to'xtatiladi. Dostonning LIV bobida keltirilgan hikoyat Bahrom go'r haqida bo'lib, shoh Bahrom ovga chiqadi va g'oyatda ko'p yelib-yugurgani uchun juda ham och qoladi. U yoqdagi xonadonlar oldida to'xtaydi va xalqqa qarata "Men sizlarga mehmonman. Nimaiki



tayyor ovqatingiz bo'lsa, o'sha bilan meni mehmon qilinglar, menga och odamni qanoatlantiradigan taomlar kifoyadir" deydi. Xonadonlardan birida boy inson yashab, u Bahrom go'rni aytganlariga ahamiyat ham bermaydi. Ikkinchi uy egasi esa isrofni haddan ziyod qiladigan bo'lib, qo'ylarni so'ydirib, katta qozonlarga ovqat osdirib, zo'r bir ziyofatga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Biroq uning ertaga tayyor bo'ladigan oshining och Bahromga qizig'i ham yo'q edi. Uchinchi xonadon egasi esa o'zi nochor bo'lsada, uyidagi tayyor non va qatiqni beradi. Bahrom go'r tayyor ovqatni yegach, undan ochlik ranji mashaqqati ketadi. So'ngra o'sha yegulik bilan mehmon qilgan nochorga mol-dunyo beradi, uni pisand qilmagan boyni esa jazolashni buyuradi. Isroffurushga esa tanbeh beradi. Dostonda keltirilgan hikoyatlardan tashqari Iskandarning rahmdilligi, adolati ham insonlar uchun ibratlidir. Masalan, uning Doroga qilgan munosabatini oladigan bo'lsak, Doro uning dushmani edi, u bilan saf tortib urush qilayotgan kezda, Doroning noiblari xiyonat qilib jang payti pichoqlashadi va ular ham Iskandarga qo'shilish taklifini berishgan edi, mard va Allohni tanigani uchun ham ularga qarshi bo'ladi, Daroni yarador holda ko'rganida esa uning so'nggi istaklarini bajo keltiradi va bu holatda odamiylik ifori barqib turar edi. Uning so'nggi uch istagi;

- 1.Xiyonatkorlarni topib jazolash;
- 2.Qrindosh-urug'lariga ozor bermaslik;
- 3.Qizi Ravshanakka uylanish edi.

Adolatli shoh Iskandar o'z dushmani bo'lgan Daroni izzat-ikrom bilan dafn etib, aytgan vasiyatlarini bajo keltiradi. Doroning 3-istagi qiziga uylanishi aynan Iskandar Makedonskiy bilan bog'liq bo'lib, o'quvchida adolatli sulton Aleksandr Makedonskiymi degan savolni uyg'otadi, biroq Marg'ib diyori fath etib, o'z vatani – Rum tomonga ot surganda, yo'lda Qirvon diyori ahli unga Ya'juj va Ma'juj zulmidan himoya qilishini so'raydi. Iskandar bu yerda olti oy davomida ikki tog' orasida mashhur Saddi Iskandariyni bunyod etib, Ya'juj va Ma'juj balosini daf etadi. Bu voqea esa bosh qahramon Iskandar Zulqarnaynmi degan taxmini ham yuzaga keltiradi. Bularni inobatga olgan holda doston qahramoni adolatli, rahmdil podshoh Iskandar Alisher Navoiy tomonidan yaratilgan ideal obrazdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, "Saddi Iskandariy" dostoni o'z zamonidagi shohlar va shahzodalar uchun pandnoma vazifasini o'tagan bo'lsa, bugunga kelib har bir yosh avlod o'rnak bo'luvchi kerakli manbadir. Dostonni o'qish davomida ko'plab xulosalarni ya'ni, dushman og'ir ahvolda bo'lganda unga dushman sifatida emas, balki Iskandar kabi Allohning bandasi deb bilish, qo'ldan kelgancha yaxshilik qilish va mol-dunyoga berilmaslik, so'nggida baribir bo'sh qo'lda Alloh huziriga borilishni unutmamak kerakligi uqtiriladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov - Navoiyshunoslik (1-kitob).
“Tamaddun” Toshkent-2018
2. A. Navoiy - Xamsa (nasriy bayoni)
3. J. Jalolova - “Saddi Iskandariy” dostonining umumiy tavsifi.
www.oriens.uz
4. www.ziyouz.com kutubxonasi